

Namangan viloyatida oliy ta'lim

2024/2025 o'quv yili boshiga


- I.** Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari
- II.** Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar
- III.** Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar
- IV.** Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V.** Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)
- VI.** Oliy ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari

Namangan viloyatida 2024/2025 o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni **8 tani** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **5 taga**, ya'ni **160 % ga** oshgan.


Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2024/2025 o'quv yili boshiga viloyatda jami **2 ta** nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritgan va 2020/2021 o'quv yiliga nisbatan ularning soni deyarli **2 barobarga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)

	Oliy ta'lim tashkilotlari soni, jami	shundan: nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari
Namangan viloyati	8	2
Namangan sh	4	2
Davlatobod t	2	-
Yangi Namangan t	1	-
tumanlar		
Mingbuloq	-	-
Kosonsoy	-	-
Namangan	-	-
Norin	-	-
Pop	-	-
To'raqo'rg'on	1	-
Uychi	-	-
Uchqo'rg'on	-	-
Chortoq	-	-
Chust	-	-
Yangiqo'rg'on	-	-

2024/2025 o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining eng ko'p qismi Namangan shahri (**4 ta**), Davlatobod (**2 ta**) va Yangi Namangan (**1ta**) tumanlarida qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan, eng past ko'rsatkichlar To'raqo'rg'on (**1 ta**) tumanida kuzatilgan.

Nodavlat umumta'lim tashkilotlariga kelsak, ularning eng ko'p soni Namangan shahrida qayd etilgan. (2 ta) qolgan xududlarda yo'q.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)

[Faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)


[Faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)

II. Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar

Namangan viloyatida 2024/2025 o'quv yilida oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar sonini o'sishi kuzatilgan. Ularning umumiy soni **16,1 ming kishini** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **5,6 ming kishiga**, ya'ni **1,6 barobarga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Yuqorida qayd etilgan davr davomida qabul qilingan qizlar soni **4,7 mingtaga**, ya'ni **1,8 baravarga**, o'g'il bolalar soni esa **0,9 mingtaga**, ya'ni **1,2 baravarga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar

sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Qabul qilingan talabalar sonini, jami	umumy soniga nisbatan % da	qabul qilingan talabalar sonidan:		jami talabalar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	bakalav-riatga qabul	magist-raturaga qabul
Namangan viloyati	16,1	100,0	10,2	5,9	15,4	0,71
Namangan sh	12,5	77,5	8,9	3,6	12,0	0,46
Davlatobod t	1,2	7,6	0,4	0,9	1,1	0,09
Yangi Namangan t	1,6	10,2	0,3	1,4	1,6	0,07
<i>tumanlar</i>						
Mingbuloq	-	-	-	-	-	-
Kosonsoy	-	-	-	-	-	-
Namangan	-	-	-	-	-	-
Norin	-	-	-	-	-	-
Pop	-	-	-	-	-	-
To'raqo'rg'on	0,8	4,7	0,7	0,07	0,7	0,1
Uychi	-	-	-	-	-	-
Uchqo'rg'on	-	-	-	-	-	-
Chortoq	-	-	-	-	-	-
Chust	-	-	-	-	-	-
Yangiqo'rg'on	-	-	-	-	-	-

2024/2025 o'quv yili boshida, oliy ta'lim tashkilotlariga eng ko'p qabul qilingan talabalar soni Namangan shahri (**12,5 ming**), Yangi Namangan (**1,6 ming**) tumanida kuzatilgan. Boshqa hududlarga nisbatan, eng kam talabalar Davlatobod (**1,2 ming**), To'raqo'rg'on (**0,8 ming**) tumanlarida qabul qilinganligi belgilangan.

Kuzatilayotgan davr davomida oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, ularning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi **52,3 % ni**, o'g'il bolalar ulushi esa **47,7 % ni** tashkil etgan. O'z o'rnida, To'raqo'rg'on tumanida (qiz bolalar ulushi ushbu hududdagi umumiy qabulning **90,3 % ini** tashkil etgan), Namangan shahrida (**66,5 %**) qabul qilingan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushiga nisbatan yuqori bo'lgan. Davlatobod tumanida esa aksincha (**25,0 %**) qabul qilingan qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan kamroq bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat yo'nalishlariga qabul qilingan talabalar soni](#)


[Oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura mutaxassislariga qabul qilingan talabalar soni](#)

III. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar

Namangan viloyatida 2020/2021 o'quv yilidan 2024/2025 o'quv yiligacha bo'lgan davr mobaynida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni ortib borayotganligi kuzatilgan. Ushbu davr ichida talabalarning umumiy soni **27,9 ming kishiga**, ya'ni **2,1 barobarga** ko'paygan.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Yuqorida ko'rsatilgan davrda oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan qiz bolalar soni **15,3 ming kishiga**, ya'ni **2,3 barobarga**, o'g'il bolalar soni esa **12,6 ming kishiga**, ya'ni **1,9 barobarga** oshgan. 2024/2025 o'quv yili boshida talabalarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi **50,9 % ni**, o'g'il bolalar ulushi esa **49,1 % ni** tashkil etgan.

**Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Talabalar soni, jami	umumiy soniga nisbatan % da	tahsil olayotgan talabalar sonidan:		jami talabalar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	bakalav-riatda o'qiyotganlar	magist-raturada o'qiyotganlar
Namangan viloyati	53,9	100	27,5	26,4	52,5	1,4
Namangan sh	32,5	61,2	21,9	11,1	31,6	0,8
Davlatobod t	9,0	16,2	2,2	6,8	8,8	0,2
Yangi Namangan t	9,9	18,1	1,1	9,8	9,7	0,2
<i>tumanlar</i>						
Mingbuloq	-	-	-	-	-	-
Kosonsoy	-	-	-	-	-	-
Namangan	-	-	-	-	-	-
Norin	-	-	-	-	-	-
Pop	-	-	-	-	-	-
To'raqo'rg'on	2,4	4,5	2,2	0,2	2,2	0,2
Uychi	-	-	-	-	-	-
Uchqo'rg'on	-	-	-	-	-	-
Chortoq	-	-	-	-	-	-
Chust	-	-	-	-	-	-
Yangiqo'rg'on	-	-	-	-	-	-

2024/2025 o'quv yili boshida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning eng katta qismi Namangan shahri (**32,5 ming**), Yangi Namangan (**9,9 ming**) tumanida qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan, talabalar sonining eng past ko'rsatkichi esa Davlatobod (**9,0 ming**), To'raqo'rg'on (**2,4 ming**) tumanlarida kuzatilgan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(jami\)](#)
[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(qiz bolalar\)](#)
[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(o'g'il bolalar\)](#)
[Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(jami\)](#)
[Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)
[Kechki ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)
[Sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)
[Har 10 000 aholiga nisbatan oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari soni](#)

IV. Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

2024-yilda Namangan viloyatida oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni **12,4 ming kishini** tashkil etgan va 2020-yilga nisbatan ularning soni **8,3 ming kishiga**, ya'ni **3,0 barobarga** oshgan. Bitiruvchilarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi **53,4 % ni**, o'g'il bolalar ulushi esa **46,7 % ni** tashkil etgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni
(tegishli yili uchun, ming kishi)



Yuqorida qayd etilgan davr mobaynida oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan qiz bolalar soni **4,5 mingtaga**, ya'ni **3,1 barobarga**, o'g'il bolalar soni esa **3,8 mingtaga**, ya'ni **2,9 barobarga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024-yil uchun, ming kishi)

	Bitiruvchi-lar soni, jami	umumiy soniga nisbatan % da	bitiruvchilar sonidan:		jami talabalar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	bakalav-riyat bitiruv-chilari	magist-ratura bitiruv-chilari
Namangan viloyati	12,4	100	6,6	5,8	12,3	0,1
Namangan sh	8,8	71,0	6,1	2,8	8,74	0,06
Davlatobod t	2,0	16,1	0,3	1,7	1,99	0,01
Yangi Namangan t	1,6	12,9	0,2	1,3	1,6	
tumanlar	-	-	-	-	-	-
Mingbuloq	-	-	-	-	-	-
Kosonsoy	-	-	-	-	-	-
Namangan	-	-	-	-	-	-
Norin	-	-	-	-	-	-
Pop	-	-	-	-	-	-
To'raqo'rg'on	0,04	0,3	-	-	-	0,04
Uychi	-	-	-	-	-	-
Uchqo'rg'on	-	-	-	-	-	-
Chortoq	-	-	-	-	-	-
Chust	-	-	-	-	-	-
Yangiqo'rg'on	-	-	-	-	-	-

Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining eng ko'p qismi Namangan shahri (**8,8 ming**), Davlatobod (**2 ming**) tumanida qayd etilgan.

Boshqa hududlarga nisbatan bitiruvchilar sonining eng kam qismi Yangi Namangan (**1,6 ming**), To'raqo'rg'on (**0,04 ming**) tumaniga to'g'ri kelgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan talabalarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, Namangan (**68,6 %**) shaxrida bitiruvchilarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushiga nisbatan yuqori bo'lgan. Davlatobod (**15,6 %**) va Yangi Namangan (**14,8 %**) tumanlarida esa aksincha, qiz bolalar ulushi o'g'il bolalarga nisbatan kamroq bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(jami\)](#)


[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

V. Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)

2024/2025 o'quv yili boshida Namangan viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan professor-o'qituvchi xodimlar soni (o'rindoshlarsiz) **2,3 ming kishini** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **1,0 ming kishiga**, ya'ni **76,9 % ga** oshgan. O'z o'rnida, ayol-o'qituvchilar soni **0,5 ming kishiga**, ya'ni **266,6 % ga**, erkak-o'qituvchilar soni esa **0,5 ming kishiga**, ya'ni **150 % ga** ko'paygan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Yuqorida ko'rsatilgan davrda professor-o'qituvchi xodimlarning (o'rindoshlarsiz) umumiy sonidan ayollar ulushi **34,8 % ni**, erkaklar udushi esa **65,2 % ni** tashkil etgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Professor- o'qituvchi xodimlar soni	umumiy soniga nisbatan % da	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
			ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Namangan viloyati	2,33	100,0	0,79	1,54	33,9	66,1
Namangan sh	0,97	41,7	0,40	0,57	41,3	58,7
Davlatobod t	0,43	18,6	0,08	0,35	18,6	81,4
Yangi Namangan t	0,83	35,7	0,25	0,58	30,2	69,8
tumanlar	-	-			-	-
Mingbuloq	-	-			-	-
Kosonsoy	-	-			-	-
Namangan	-	-			-	-
Norin	-	-			-	-
Pop	-	-			-	-
To'raqo'rg'on	0,09	4,0	0,05	0,04	55,5	44,5
Uychi	-	-	-	-	-	-
Uchqo'rg'on	-	-	-	-	-	-
Chortoq	-	-	-	-	-	-
Chust	-	-	-	-	-	-
Yangiqo'rg'on	-	-	-	-	-	-

Oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchi xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining yuqori ko'rsatkichlari Namangan shahri (**18,9 ming** Yangi Namangan (**3,2 ming**) tumaniida qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar esa Davlatobod (**0,43 ming**), To'raqo'rg'on (**0,09 ming**) tumanlarida kuzatilgan.

Oliy ta'lim tashkilotlaridagi professor-o'qituvchi xodimlarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, To'raqo'rg'on (ayollar ulushi ushbu hududdagi professor-o'qituvchi xodimlarining umumiy sonidan **55,5 % ni** tashkil etgan), Namangan shaxri (**52,4 %**) ayol-o'qituvchilar ulushi erkaklar ulushidan yuqori bo'lgan. Davlatobod (**18,6 %**), Yangi Namangan (**30,2 %**) tumanlarida esa, aksincha, ayollar ulushi nisbatan past bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari \(o'rindoshlarsiz\) soni](#)

VI. ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Namangan viloyatida **oliy ta'lim** uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib, respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Namangan viloyatida oliy ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisoboti – **1 oliy ta'lim shakli** "Oliy ta'lim tashkilotining hisoboti" ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining statistik hisoboti qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, bitiruvchilar, professor-o'qituvchi xodimlar soni, ta'lim shakllari va turlari, shuningdek, oliy ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, professor-o'qituvchi xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Axoli tushmush darajasi va Ijtimoiy
soha statistikasi bo'limi

Manzil: 100170, Namangan sh.,
N.Namongoniy ko'chasi, 14
El. manzil: info@namstat.uz
Tel.: 69-227-84-94

